

**TALABALARNING KASBIY, NUTQIY KOMPETENSIYALARINI
SHAKLLANTIRISHDA SHEVA XATOLARINI BARTARAF
ETISHGA QARATILGAN METODIK VOSITALAR**

Qo'ziboyeva Sabohat

Maxsutbaeva Nigora Rashid qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti

Turkiy tillar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti ta'lim y'nalishi talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada talaba-yoshlarning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan fikr va mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish barobarida shevaga xos so'zlardan foydalanish darajasini tushirish va adabiy tilda so'zlash qobiliyatini oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalar va vositalar haqida fikr yuritilgan. Shu bilan birga amaliy o'zbek tili darsligidan qo'llangan talabalarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish va xatolardan xatolarni bartaraf etish borasida nazariy qarashlar mavjud.

Kalit so'zlar: Kasbiy monologik nutq, gapning tuzilishi, nutqiy kompetensiya, kasbiy kompetensiya, ekspressiv nutq.

Bugun shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish talabi yoshlarning har tomonlama intellektual qobiliyatini rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada talabalarning kasbiy va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda shevaga xos so'zlarni qo'llashning bartaraf etilishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, bartaraf etishga qaratilgan metodik tavsiyalar va vositalar katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada kompetensiyaning faoliyatini yanada kuchaytirish katta rol o'ynaydi. Kompetensiya lotincha so'zdan olingan bo'lib, "munosib", "to'g'ri kelish" ma'nolarini bildiradi. Moslashuvchanlik ma'nosida bilim va mahoratning tajriba bilan shakllanishi kasbiy komponentlik aloqasini yuzaga keltiradi.

Talabalarning kasbiy nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda turli xil tavsiyalar mavjud bo'lib, ular muloqot shakllarini amalga oshirishda o'z fikrlarini og'zaki yokimi yozma tarzda bayon etishlari lozim. Muloqotda suhbatdosh bilan suhbat shaklining qanday formatda olib borilishi ularning konstruksiya vazifalariga bogliqdir. Muloqotda suhbat o'z pozitsiyasini himoya qilgan holatdan axborot bersa axborot olishi yoki shaxsiy javob berishi mumkin. Bunday u kasbiy komponentlikdan foydalangan holatda axborot bilan ishlash mavjuda axborotlarni qabul qila olish mumkin misol uchun kompetensiyaning turli kvalifikatsiya va kompetensiyaning turlari mavjud kasbiy shaxsiy umum soni madaniy maxsus kabi turlaridan kelib chiqqan holatda

pedagogikaga oid kasbiy kompetensiyani tarbiya bilan ifodalash mumkin. □ Monologik nutq so'zlovchining o'ziga qaratilgan, boshqa shaxsning tinglash va javob berishini e'tiborda tutmaydigan nutq shakli. Ayrim dramatik asarlarda personajning monologik nutqi tomoshabinga qaratilgan bo'ladi. Monologik nutq nasriy asarlarda ham bor. Nazmda esa asosiy nutq shakllaridan biri hisoblanadi. Ba'zan monologik nutqda asarning kulminatsion nuqtasi bayon etiladi. Monologik nutq uchun, odatda, tuzilish va mazmun jihatdan o'zaro bog'liq, o'ziga xos kompozitsion qurilishga va mantiqiy tugallikka ega bo'lgan matnning ma'lum bo'lagi xos bo'ladi. Monologik nutq og'zaki (nutq bayon qilish) yoki yozma (publitsistika, memuarlar, kundaliklar) shaklida ifodalanishi mumkin. Monologik nutqning og'zaki shaklida ohang (intonatsiya) muhim o'rin egallaydi, yozma monologik nutqda esa ohang matnning sintaktik konstruksiyasiga, mantiqiy urg'u tushuvchi so'zlarning joylashish o'rniga bog'liq. Monologik nutq notiqning asosiy nutqiy shakllaridan hisoblanadi; u lingvo-stilistik usul bo'lib, bir qancha turlari mavjud. Masalan, ta'sir qiluvchi (targ'ib qiluvchi) monologik nutq, dramatik monologik nutq, lirik monologik nutq, hikoya qiluvchi (axborot beruvchi) monologik nutq. Monologik nutqning ochiq nutq va ichki nutq kabi ko'rinishlari mavjud: ochiq monologik nutqda personaj o'z nutqini ovoz chiqarib bayon etasa, ichki monologik nutqda monolog personajning ichki nutqi, o'ylari shaklida namoyon bo'ladi¹.

Ta'lim-tarbiyani bilan uyg'unlashgan kompetensiya shivaga xos so'zlardan nutqi parazitlardan nutqiy takrorlardan xoli shaklda shakllanadi. Bu esa nutqning ravon va jozibali chiqishini yuzaga keltiradi yanada o'quvchi yoshlarning nutqini rivojlantirish yuzasidan turli xil metodik vositalari mavjud. Misol uchun: dars tizimida uyga vazifalarni yozma yoki og'zaki tarzida bajarish tavsiya etiladi bugungi kunda ona tili va adabiyot darslarida kitob triler, videomarkerlar ishlab chiqarish ham tavsiya etilmoqda. Yokida ma'lum bir fotosurat yoki muammoli vaziyatga nisbatan yechim berishning shakllari ayniqsa nutqiy kompetensiyalarni yuzaga keltiradi. O'qituvchi tomonidan muqobil so'zlarning haqiqiy adabiy shakldagi variantini ifodalash lozimligini tushuntirilishi kerak. Yanada shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi bizga yordam beradi bunday³⁰ doimiy yashash joyida o'zaro hududda ishlatiladigan so'z va parazitlardan qutulish uchun ovozli habarni xatti-harakatlarini nazorat qilish o'z-o'zini baholash halollik kabi tendentsiyalarni tushuntirish lozim. Bunda biror bir o'quvchining talabaning ikkinchi talaba tomonidan baholanishiga yo'l beriladi misol uchun o'quvchi yoshlarning o'zaro davra suhbatida bir o'quvchi kuzatuvchi shaklda, qolganlar esa ishtiroki shaklda amalga oshiriladi. Davra suhbatida so'ngida talaba tomonidan qolganlarga izoh beriladi va o'zini o'zi tashvish qilish o'zini o'zi kuzatish borasidagi mana shunday choralar katta yordam beradi. "Amaliy metod - o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy masalalar yechimini topishga yo'naltirilgan jarayonda

¹ Kurboniyazov Gulmirza, Jalilov Sadaddin. Amaliy O'zbek tili. Nukus "Nur-Turan-print" 2023

qo‘llashni taqozo etadi. Bunda nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasi hosil qilinadi. Amaliy ishlar sinfda yoki tabiiy sharoitlar - maktab yer maydoni, issiqxona, geografik maydonlarda amalga oshiriladi. Ularni amalga oshirishda sodir etiladigan harakatlar ‘qituvchi tomonidan nazorat qilinadi va zarur hollarda y‘riqnoma yoki maxsus k‘rsatmani ‘quvchilar e‘tiboriga havola etadi. Ta‘lim metodlari ta‘lim vositalari bilan birgalikda q‘llaniladi. Ta‘lim vositalari - bu yangi bilimlarni ‘zlashtirish uchun ‘qituvchi va ‘quvchilar tomonidan foydalaniladigan obyekt. Ta‘lim vositalari katta ahamiyatga ega. Ta‘limning barcha vositalari ta‘lim maqsadlarini muvafaqqiyatli amalga oshiradi. Ta‘lim vositalari ‘zida ‘quv-tarbiyaviy maqsadga erishish uchun zarur b‘lgan moddiy yoki ma‘naviy qadriyatlarni aks ettiradi. Odatda ular ta‘lim metodlariga mos holatda foydalaniladi. Biroq, agar metodlar «qanday ‘qitish» savoliga javob bersa, vositalar esa, «uning yordamida nimani ‘qitish» savoliga javob beradi. An‘anaviy ravishda q‘llaniladigan ta‘lim vositalariga darslik, rasmlar, jadvallar, nutq, o‘quv-ustaxonasi jihozlari, laboratoriyalar, axborot vositalari, o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarish vositalari kiradi”².

Talabalarning kasbiy va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish shevaga xos so‘zlardan foydalanishni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar va metodlar ham mavjuddir. Shunga ko‘ra ularning shevaga xos so‘zlarini qo‘llanishdan chetlashtirish borasida metodik tavsiyalardan Gulmirza Kurban niyozov, Sadaddin Jalilovlarning amaliy o‘zbek tili nomli kitobida keltirilishicha talabalar o‘rtasida talabalar o‘rtasida munozara yoki debat deb nomlanuvchi o‘yinlarning tashkil etilishi katta samaradorlikni keltirib chiqaradi. Aksariyat talabalar judayam tez gapirishi yoki nutqiy parazitlardan ko‘p qo‘llanilganligi uchun bunday o‘yinlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Misol uchun: munozarada mavzu doirasida bahslarining belgilangan vaqt doirasida bo‘lib o‘tishi uchun o‘quvchi fikrni bir joyga jamlashi va qo‘ldan kelgancha chiroyli ifodalab berishi kerak bo‘ladi. Shuning uchun ham mana shunday metodlardan qo‘llarini kerak biz harakatli o‘yinlardan yoki nutqni o‘stirishga qaratilgan metodlardan foydalanishimiz mumkin. Ulardan turli xil buyumlarni, detallarni qo‘llanishi mumkin. Misol uchun ularning bir tilidan ikkinchi tiliga qanday atalishi yoki bizning muqobil tilimizdagi qo‘llanish varianti qachondan boshlab paydo bo‘la boshlangan ekani ham ahamiyatlidir. Talabalarning tezkorlikdagi nutqiy qobiliyatini ham oshirishga yordam beradi. Shu bilan birgalikda zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalari va axborot-kommunikatsiya vositalaridan qo‘llanganlar holatda nutqiy kompetensiyani oshirish mumkin. Misol uchun: ularning nutq darajasini tekshirishda ovozli xabarlarini matnga aylantiruvchi dasturlar yoki matnlarni o‘qish orqali audio kitoblari yaratish kabi vositalar ham bizga katta qo‘l keladi. “Didaktik vositalar deganda, o‘quv va ko‘rgazmali qo‘llanmalar, namoyishli qurilmalar, texnik vositalar tushuniladi.

² Tog‘ayeva Kamola Namozboy qizi. “Ta‘lim metodlari va vositalari unumli foydalanish yo‘llari” maqola. Scientific progress - 2022

Didaktik vositalar metodlar singari ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalari bajaradi. Ta'lim vositasini tanlab olish ta'lim metodini tanlash bilan bog'liq. Agar ta'limning faol metodi(kitob bilan ishlash, mashqlar) foydalanilsa, u holda o'quv qo'llanmalari, darsliklar va ta'limning texnik vositalaridan foydalaniladi. Aynan ta'limning aktiv-texnik vositalari amaliy metodlarda foydalaniladi"³.

Kundalik hayotimizda nutqiy kompetensiya - so'zlarning to'g'ri va chiroyli talaffuz etilishi va aynan fikrning to'g'ridan-to'g'ri yetkazib berishda qo'l keladi. Kasbiy kompetensiya esa biz egallagan kasbda qo'llanishi doirasida mavjud bo'lgan so'zlarni qo'llash va ularning hayotga tatbiq etilishi bilan amaliy bog'liqdir. Bu ikki holatni o'zaro bir-biriga chambarchas holda bog'lagan tarzda metodik jihatdan rivojlantirishga oid turli xil vositalar mavjud misol uchun kundalik hayotimizda qo'llaniluvchi vositalar, ashyolarining o'zlashma nomi yoki shevaga xos variantlarni qo'llash natijasida biz adabiy tildan chetlashamiz. Yanada har bir dars soatlarda talaba yoshlar shevaga xos so'zlardan muqobil variantlarini ajrata olish qobiliyatlarini shakllantirishga ko'ra o'zlari mansub bo'lgan hududga ko'ra shevaga oid so'zlardan izohlar yozishlari va o'quvchilar bir-birlariga e'lon qilib ko'rsatishlari kerak. Qo'shimcha tarzda ta'lim jarayonida kun mavzusi va kun yangiliklari vaqtida o'qituvchi tomonidan har xil turdagi shevaga xos so'zlarning adabiy variantlarini qo'llanishi ham yaxshi samaradorlikni keltirib chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kurboniyazov Gulmirza, Jalilov Sadaddin. Amaliy O'zbek tili. Nukus "Nur-Turan-print" 2023
2. Tog'ayeva Kamola Namozboy qizi. "Ta'lim metodlari va vositalari umumli foydalanish yo'llari" maqola. Scientific progress – 2022
3. B.X.Xodjayevev "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti". Toshkent – 2017, "Sano-standart" nashriyoti.

³ B.X.Xodjayevev "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti". Toshkent – 2017, "Sano-standart" nashriyoti.